

## UMUMIY PEDAGOGIKA

**Usmonova Shodiyonaxon Inomjon qizi**  
talaba, ADCHTI

**Ayupova Guloyim Baxtiyorjon qizi**  
o‘qituvchi, ADCHTI

### ANNOTATSIYA

Insoniyat yuksak ma’naviyatga intilayotgan bir vaqtida, unga bu yo‘lda poydevor bo‘lib xizmat qiladigan fan deb umumiy pedagogika tan olinmoqda. Bu buyuk yo‘l sari bosilayotgan qadamlarga umumiy pedagogika fanining o‘rnini kattaligini ta’kidlagan xolda, ushbu maqola umumiy pedagogika deb nomlandi. Maqolada umumiy pedagogikani mohiyati va bu fanni boshqa fanlar bilan bog‘liqligi haqida ma’lumotlar keltirib o‘tilgan. Qolaversa maqolani yanada yoritish maqsadida bir qancha qo‘sishma ma’lumotlar ham taqdim etiladi. Maqolani yozish jarayonida bir qancha ilmiy manbalardan va darsliklardan foydalanildi.

**Kalit so‘zlar:** Umumiy pedagogika, psixologiya.

### АННОТАЦИЯ

В то время, когда человечество стремится к высшей духовности, общая педагогика признается наукой, служащей фундаментом на этом пути. Эта статья называется «Общая педагогика», подчеркивая значение общей педагогики на этом великом пути. В данной статье представлена информация о сущности общей педагогики и ее связи с другими дисциплинами. Кроме того, представлена некоторая дополнительная информация для дальнейшего разъяснения статьи. В процессе написания статьи было использовано несколько научных источников и учебников.

**Ключевые слова:** Общая педагогика, психология.

### ABSTRACT

At a time when humanity is striving for higher spirituality, general pedagogy is recognized as a science that serves as a foundation on this path. This article was called "General Pedagogy", emphasizing the importance of general pedagogy in the steps to this great path. This article provides information about the essence of general pedagogy and its relationship with other disciplines. In addition, some detailed information is provided to further clarify the article. In the process of writing the article, several scientific sources and textbooks were used.

**Keywords:** General pedagogy, psychology.

Hozirgi zamon shiddat bilan rivojlanayotgan bir vaqtida, yurtimizni jahon miqqoyosida buyuk davlatlar sirasiga kirishida ma’nan yetuk avlod tarbiyalanishi

muhim o‘rin tutadi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Garchi bu yo‘l anchayin mashaqqatli bo‘lsada, buyuk-buyuk ullamolar hamjihatlikda ter to‘kib umumiy pedagogika faniga asos solishdi.

Umumiy pedagogika - yunonchadan olingen bo‘lib “paidagogike” ya’ni, “paidagogos”- “bola” va “yetaklayman”ni anglatib, ijtimoiy ta’lim- tarbiyaning qonuniyatlari, yosh avlodni tarbiyalash hamda unga ta’lim berishning mohiyati va muammolarini o‘rganadigan fandir.

Pedagogika fani shaxsni rivojlantirishning ikki muhim jihat - uni o‘qitish va tarbiyalashga asosiy e’tibomi qaratganligi bois didaktika (taiim nazariyasi) va tarbiya nazariyasi fanning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Yevropa Uyg‘onish davrida Leonardo da Vinci, X. Vives kabilar psixologiya rivojiga o‘z hissalarini qo‘shdilar. XVIII asrga kelib M. V. Lomonosov, A. N. Radishchev, G. S. Skovoroda, T. Gobbs, B. Spinoza, G. Leybnits. J. Lokk, K. A. Gelvetsii, A. Golbax, D. Didrolar psixologiyada bir talay kashfiyot qildilar, uni amaliy ma’lumotlar bilan boyitdilar. Psixologiya XIX asrning 2-yarmiga kelib mustaqil fan sifatida ajralib chiqdi. Nemis olimi V. Vundt Leypsigda 1879-yil dastlabki eksperimental laboratoriyanı jihozlashga erishdi.

Pedagogika fani insonni rivojlanishi yo‘lida xizmat qiladigan barcha fanlar bilan bog‘liqdir. Lekin eng avvalda eng yaqin aloqador fan deb psixologiyani ayta olamiz.

Psixologiya — inson faoliyati va hayvonlar xatti-harakati jarayonida voqelikning psixik aks etishi, ruhiy jarayonlar, holatlari, hodisalar, hislatlar to‘g‘risidagi fan. Psixologiyaning tadqiqot predmetiga sezgilar va idrok obrazlari, tafakkur va hissiyot, faoliyat va muomala kabi psixologik jarayonlar, kategoriylar kiradi. Psixologiyaning asosiy vazifalari — psixika qonuniyatlarini, inson ruhiy holatlari shakllanishini filogenetik va ontogenetik taraqqiyot birligida ochishdan iboratdir [1].

Pedagogik psixologiya umumiy va bolalar psixologiyasi, shuningdek, pedagogika bilan uzviy bog‘liq. Pedagogik psixologiya, asosan, ta’lim psi-xologiyasi va tarbiya psixologiyasiga bo‘linadi. Ta’lim psixologiyasida o‘quv jarayonida xotira, tafakkur, nutq, xayol, irodaning roli, shuningdek, o‘quvchilarning individual xususiyatlari (temperamenti, harakteri, qiziqishlari), o‘quv predmetlarining o‘ziga xos tomonlari, ta’lim jarayonini boshqarishning psixologik tamoyillari va boshqalar o‘rganiladi.

Shaxsni tarbiyalash, o‘qitish va shakllantirish Pedagogning asosiy funksiyasi hisoblanadi. Shaxsni tarbiyalash Pedagogikadagi asosiy tushuncha sanalib, oila va jamiyatning barkamol shaxsni shakllantirishga yo‘naltirilgan birgalikdagi faoliyatini anglatadi. Tarbiya yordamida inson shaxsining ma’naviy jihatlarini qaror toptirish ko‘zda tutiladi. Dunyoqarash, e’tiqod, ezgulik, go‘zallik, yaxshilik, adolatga doyr qarash va ko‘nikmalarning shaxs sifatiga aylantirilishi tarbiya yordamidagina amalga oshiriladi. Insonlar orasida yashash, hayotda turmush kechirish va faoliyat ko‘rsatish

uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar yig‘indisini o‘zlashtirishga qaratilgan faoliyat o‘qitish tushunchasini ifoda etadi. O‘qitish natijasida shaxs zaruriy bilimlar bilan ta’minlanib, kelgusida turli darajadagi maxsus ma’lumotni olish imkoniga ega bo‘ladi. Tarbiyalash va o‘qitish natijasida odamda muayyan shaxs sifatlari shakllantiriladi. Shaxs tarbiyalash va o‘qitish orqali o‘zida oldin bo‘lmagan ma’naviy-intellektual sifatlarga ega bo‘ladi. Bu hol shaxsning umri mobaynida uzlucksiz davom etadi va uning rivojlanishiga omil bo‘ladi [2].

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. R. A. Mavlonova, N.H. Rahmonova, K.O. Matnazarova, M.K. Shirinov, S .Lafizov. “Umumi pedagogika”. - T.:«Fan va texnologiya», 2018.-B. 528.
2. Baxtigul Baxodirovna Ergasheva ZAMONAVIY PSIXOLOGIYANING PEDAGOGIKA BILAN UZVIY BOG‘LIQLIGI // Academic research in educational sciences. 2022. №7. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/zamonaviy-psixologiyaning-pedagogika-bilan-uzviy-bogliqligi>.